



POETIK MATNDA KONSEPTUAL METAFORANING FAOLLASHUVI

Xalimova Firuza Rustamovna

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti, PhD

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotasiya. Falsafiy nuqtai nazardan umuman qiyos, xususan uning verballashgan ko'rinishlari bo'l mish o'xshatish va uning rivojlangan varianti – metafora olamni anglashga ko'mak beruvchi gnoseologik – kognitiv vazifa bajaradi. Ularni lingvomadaniy jihatdan o'rganish esa o'xshatishlarning milliy-madaniy semantikasini ochishni, unda aks topgan milliy aksiologik nigoh – o'ziga xos olamning lisoniy manzarasini tushunish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: metafora, obraz, badiiy tafakkur; konseptual metafora, kognitiv jarayon, hodisa, mohiyat.

АКТУАЛИЗАЦИЯ КОНСЕПТУАЛНОЙ МЕТАФОРЫ В ПОЭТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

Халимова Фируза Рустамовна

доцент кафедры теория и практика перевода, к.э.н.

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Аннотация. С философской точки зрения сравнение и его развитый вариант – метафора, выполняет гносеологическую-когнитивную функцию, способствуя познанию мира. Лингвокультурное изучение позволяет раскрыть национально-культурную семантику аналогий, понят отраженный в ней национальный аксиологический взгляд – языковую картину конкретного мира.

Ключевые слова: метафора, образ, художественное мышление, концептуальная метафора, познавательный процесс, явление, сущность.

ACTUALIZATION OF CONCEPTUAL METAPHOR IN POETIC TEXTS

Halimova Firuza Rustamovna

Associate Professor of the Department of Translation Theory and Practice, Ph.D

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract. From a philosophical point of view, comparison and its developed version – metaphor, performs an epistemological-cognitive function, contributing to the knowledge of the world. Linguocultural study allows us to reveal the national-cultural semantics of analogies, to understand the national axiological view reflected in it – the linguistic picture of a particular world.

Keywords: metaphor, image, literary mind, conceptual metaphor, cognitive process, phenomenon, essence.

Kirish. Metaforaning poeziyadagi mavqeい va roli muttasil ortib borgan, XVIII asrdan metaforaga "nutq bezagi" gina emas, tafakkur bilan bogliq hodisa sifatida qarash kuchayib kelgan. Bu esa XX asrga kelib metaforani tafakkur mexanizmlaridan biri sifatida tushunishni ustuvor etib, uning bilish jarayonidagi ahamiyatini yangicha baholashni taqozo etdi. Natijada metafora nafaqat filologiya, balki falsafa, germenevtika, psixologiya, mantiq, fan metodologiyasi kabi sohalarning ham obekti bo'lib qoldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Metafora olamni idrok etishning o'ziga xos vositasi, tilda yangi ma'noni yuzaga keltiruvchi kognitiv mexanizmdir. Demak, metafora nafaqat til hodisasi, balki tafakkur hodisasi hamdir. A.G. Yuldashevning fikriga ko'ra, tafakkurning o'zi metaforikdir, u qiyoslash orqali sodir bo'ladi va aynan shu nuqtada tilda metafora hosil bo'ladi hamda nafaqat ifoda vositasi, balki tafakkurning asosiy qurolidir (Yuldashev 2019: 59).

Metafora obrazli tafakkur natijasi bo'lib yaraladi, garchi til hodisasi bo'lsa ham, bu xususiyatini til estetik vazifa bajaruvchi poetik nutqdagina to'la namoyon etadi. Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atab qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqidagi jonli tasavvur – obraz yaratadi. Bu obraz poetik nutqdagina aslicha, ya'ni obraz sifatida qabul qilinadi. San'at, xususan, poeziya obrazli tafakkur qilish namunasi va obrazli ifodadir. Shunga ko'ra metaforani faqat nutq

bezagi emas, balki badiiy tafakkur mexanizmi sifatida tushunilsa, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki metafora shoirga o‘z ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va tashqi olamini (ichki olamga qiyosan) anglashga yordam beruvchi tengi yo‘q vositadir.

Metafora olam manzarasi konseptuallashuvining eng keng tarqalgan turi bo‘lganligi sababli konseptual tahlil obyekti sifatida tanlanadi. Konseptual metafora u yoki bu jamoaning lisoniy-madaniy an’alarida qayd etilgan manba va maqsad o‘rtasidagi doimiy mutanosiblikni aks ettiruvchi hodisadir (Baranov 2003).

Hozirda badiiy adabiyotda metafora ma’no ko‘lamini ham benihoya kengaytirgan: o‘xshashlik asosida ko‘chma ma’noda qo‘llangan birgina so‘zni ham, matnning bir bo‘lagi (misra, band; jumla, abzas)da ifodalanuvchi obrazni ham, ba’zan esa butun boshli asarni to‘laligicha ham metafora deb atayveramiz. To‘gri, keyingi ikki holni ba’zan “yoyiq metafora” yoki “metaforik obraz” deb aniqlashtiramiz, lekin ko‘proq qisqa qilib “metafora” deymiz. Ya’ni, avvaliga metafora terminida ma’no torayishi (umuman ko‘chma ma’nodagi so‘z-o‘xshashlik asosidagi ko‘chma ma’noli so‘z) yuz bergan bo‘lsa, yangi davrdan boshlab unda ma’no kengayishi jarayoni kuzatiladi. Natijada, metafora juda keng, ya’ni poetik matnda (umuman san’atda)gi bir narsa-hodisa mohiyatini ikkinchi bir narsa-hodisa orqali ochish deb tushunila boshlandi.

San’atdagi, jumladan, poeziyadagi obraz konkret his etiladi, demak, u narsaning aksigina emas, balki uning o‘zi boshqa narsadir. Obraz o‘zi aks ettirayotgan narsani anglash vositasi ekanligini esga olsak, uning o‘zi tabiatan metaforik ekanligi ko‘rinadi. Xuddi shunday yondashuv butun badiiy asarga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin, zero, ma’lumki, estetika va adabiyotshunoslikda badiiy asarning o‘zi butun holicha bitta obrazga teng degan qarash mavjud. Demak, poeziyada metaforaning o‘rniga juda katta ahamiyat berilishi, uning asosida o‘xshashlik tamoyili yotadi deyilishiga yetarli asos bor. Sababi, metafora poetik asarning barcha sathlarida uning tilidan boshlab kompozision qurilishigacha amal qiladi. Faqat konkret asarda bu tamoyil sathlarning hammasida ham yetakchi xususiyat sifatida yaqqol ko‘zga tashlanmasligi mumkin.

Metafora – lirk subyekt kayfiyatini berish, emosional tonallikni belgilashning tengsiz vositasi. Buni A. Oripovning quyidagi she’ri misolida ko‘rsatish mumkin:

Osmon ufqlarga separ kul rangin,
Bulutlar chopadi, xorg‘in be ega.
Havo nega muncha ma’yus,
Havo nega muncha g‘amgin:
Oh, men sendan ajraldim nega!...

She’r g‘amgin, elegik ruh bilan yo‘g‘rilgan, buning ilk misradayoq ifoda topgani o‘quvchini she’rni qabul qilishga emosional jihatdan tayyorlaydi. She’rdagi kayfiyat asosini yo‘qotish iztirobi, aza ruhi tashkil qiladi. Agar o‘tmishda ayollarning azada boshlaridan kul sochish urfi bo‘lgani eslansa, “osmon ufqlarga separ kul rangin” metaforasining ildizlari ko‘zga tashlanadi. Demak, ilk satrni o‘qigandayoq aza ruhini his qilishimiz bejiz emas, osmonning ufqlarga kul rangini sochishi bilan o‘rtasidagi analogiyalar buning asosidir. To‘g‘ri, o‘quvchi bu tafsilotni bilmasligi ham mumkin, lekin anglanmagan tarzda ham o‘sha ruhni his qilaveradi. Zero, inson ongida suyak surib asrlardan o‘tib keluvchi tarixiy xotira yashaydi va anglangan yo anglanmaganligidan qat’iy nazar, uning tafakkur tarziga ta’sir qiladi.

A. Oripov she’rlari tahlili orqali metaforaning fikrni original va ta’sirli ifodalash, matnlararo aloqa asosida an’ana va yangilik aloqasini yuzaga chiqarish, she’rga milliy ruh bag‘ishlash, mazmunni uyuştiruvchi markaz bo‘lish kabi vazifalarini ko‘rish mumkin. Bu esa metafora badiiy tafakkurning asosiy mexanizmi ekani, she’riyat asosida o‘xshashlik tamoyili yotishi hamda katta o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Metaforaga har doim funksional jihatdan qarash kerak. Bunda bir tomondan, uning shoirga dilidagini ifodalashga, ikkinchi tomondan, she’rxonga ularni his qilishga qanchalik yordam berayotganini diqqat marakaziga qo‘yish muhim. Zero, metafora ijodiy faoliyat mahsuli ekan, xuddi badiiy asar yoki obraz kabi ikkala tomonni, ijodkor va o‘quvchini birdek nazarda tutishni taqozo etadi. Demak, metaforaning she’riyatdagagi o‘rni va ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning she’riy matnda bajarayotgan vazifalarni kuzatish zarurdir.

Darhaqiqat, metaforaning roli faqat obyektlar, hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashliklarga ishora qilish bo‘lib qolmasdan, balki ma’lum sharoitda yangi konseptual va perceptual xususiyatlarning yaratilishida ko‘rinadi (Safarov 2006: 84).

Muhokama va natijalar.

Tilning antroposentrik nuqtai nazaridan tadqiq qilinishi natijasida metafora hamda metonimiya konseptual darajada tadqiq etila boshlandi. J. Lakoff va M. Jonson metaforani oddiy stilistik ifoda vositasi emas, balki konseptual lingvistik maqomga ega bo‘lgan muhim hodisa ekanligini e’tirof etgan holda uning yangi tabiatini ochib berdilar. Ularning fikricha, metaforalar inson konseptual tizimidan o‘rin olgani uchun tilda ifoda vositasi sifatida mavjud. Boshqacha qilib aytganda, metafora tafakkurga xos, lisoniy metaforalar faqat mana shu hodisaning tashqi ifodasidir, “metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik konseptual tizimimiz, bizning fikrlashimiz va xatti-harakatimiz ham o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforikdir” (Lakoff, Johnson 2003: 84). Ko‘rinadiki, metafora shunchaki ifoda vositasigina emas, balki tafakkur va madaniyatga aloqador hodisadir. Shunday ekan, konseptual metaforalar oddiy ma’no ko‘chishi natijasida hosil bo‘lgan hosila ma’no emas, balki inson tafakkurida sodir bo‘ladigan murakkab kognitiv jarayon natijasidir.

Bu borada olib borgan kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatdiki, konseptual metafora yangi nom yasalishining eng sermahsul usuli sanaladi. Misol uchun,

Dunyo deganlari ey g‘ofil banda,
Yuvosh bir it desa, ishonma zinhor,
Avval tovoningni yalab gazanda,
Keyin oyog‘ingdan olmog‘i ham bor.

(J.Kamol, “Yonayotgan dala”)

Ushbu she’rda qo‘llanilgan “it” leksemasi hayvon turini anglatmaydi balki qasoskor, adovatli inson obrazini tasvirlaydi. Muallif bu til birligini oddiygina qo‘llamaganining sababi anroponimning konseptual tizimida olamni idrok etish jarayonida it haqidagi assosiativ bilim shakllangan. Albatta bunday bilim lingvistik omil orqali egallangan, ya’ni inson yoshlik chog‘laridan ertak va rivoyatlardan it obrazi vahshiy, hasadgo‘y, darg‘azab insonlarning fe’l atvorini ifoda etishi haqidagi bilimga ega bo‘lgan. Jumladan, Imam G‘azzoliy “Ihyom qalb” kitobida itni – g‘azab deya ta’riflaydi. Uning salbiy obraz sifatida qaralishining bir qancha sabablarini keltiradi. Inson yaratilishida va uning tarkibida 4 xil unsur yo‘ldosh bo‘ladi va shu sababdan 4 xil sifat jamlanadi, deyiladi. Ular quyidagilar: yirtqichlik, hayvoniylilik, shaytoniylik va robboniylilikdir. Shulardan insonga g‘azab egalik qilgan bo‘lsa, dushmanlik, yomon ko‘rish, urish, so‘kish kabi illatlar mavjud bo‘lishi aytildi (Xasanova 2021: 1098).

J. Lakoff va M. Jonson metaforik hosila ma’noning paydo bo‘lishida ikki kognitiv maydon, ya’ni manba maydoni hamda maqsad maydoni ishtirok etishini ko‘rsatishadi (Lakoff, Johnson 2003: 195). Ularning fikricha, konseptual metaforalar ortida freym va ssenariy o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchi yotadi. Manba maydoni insonning tajribasi orqali borliqni idrok etishidagi aniq bilimlar yig‘indisidir. Maqsad maydoni esa nisbatan kam oydinlashgan, aniqlashgan muqarrar bilimdir. Metafora orqali ma’no ko‘chishi sodir bo‘lganda inson tilning lug‘at tarkibidagi mavjud birlulkardan va egallagan bilimidan foydalanadi. Ushbu holat manba maydoni vazifasini o‘taydi. Maqsad maydoni esa inson tafakkurida tayyor til birliklari orqali hosil qilinadigan yangi hosila ma’nodir. Ushbu nazariyadan kelib chiqadiki, yuqorida tahlil qilingan “it” leksemasining manba maydoni hayvon konsepti, maqsad maydon esa inson konsepti hisoblanadi.

Metaforik va metonimik ko‘chimlar, ramziylashtirish jarayonlari leksik tabiatga ega va asosan konseptlarni konkretlashtirish tamoyiliga asoslanadi, obyektlarning ayrim xususiyatlarini tasvirlaydi:

Keksalik boshlanib, tanni bemorlik
Zabtiga oldi-yu, xoru zor qildi.
Bir zamon yurardim, davlatlik, norlik,
Ko‘zimga dunyonи endi tor qildi.
Shogirdlar o‘stirdim joylab jonimga,
Mahramdek sanadim xonadonimga.
Oqibat o‘shalar hatto yonimga,
Kelib o‘tirishdan go‘yo or qildi.

(A. Oripov, “Imon” she’ridan)

Ushbu she’riy parchada “tanni zabtiga oldi”, “dunyonи tor qildi”, “joylab jonimga” metaforalari, “xonadonim”, “davlatlik”, “norlik” metonimlari, “mahram” ramzi orqali sog‘ligidan, davlatidan, yaqinlari mehridan judo bo‘lgan obrazni tasvirlashga, “Tashlandiq

inson” konseptini konkretlashtirishga ko‘maklashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баранов А.Н. О типах сочетаемости метафорических моделей // Вопросы языкоznания. 2003. №2. – С. 73-79.
2. Сафаров Ш. Когнитивно-интерактивные функции метафоры // Мир духовной культуры человечества: язык, литература, искусство. – Самарканд, 2006. – С. 82-85.
3. Хасanova Л. Хазойин ул-маоний” куллиётида ит образларнинг тасвирланиши тамоилилари // Scientific Progress, 2021. – 1098-1112 б.
4. Юлдашев А.Г. The role of cognitive mechanisms in the words with transferred meanings // Иностранные языки в Узбекистане. – Т, 2019. №3. – Б. 49-54.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980/2003.–276р.
6. Sherzodovich, A. S., & Jamshedovich, B. F. THE MAIN FEATURES OF THE TRANSLATION OF LITERARY TEXT. Sciencepublish. org, 16.
7. Халимова, Ф. Р. (2019). Прагматические свойства лингвофонетических средств в поэтическом тексте и их сравнительный анализ при переводе. Вестник Челябинского государственного университета, (1 (423)), 138-144.
8. Халимова, Ф. Р. (2021). КОГНИТИВ ПОЭТИКА. Academic research in educational sciences, 2(12), 133-142.
9. RUSTAMOVNA, H. F. (2020). Training Simultaneous Interpreters. JournalNX, 6(06), 623-627.
10. Rustamovna, H. F. (2020). KEY CONCEPTS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION. В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с., 232.